

CHINGIZ AYTMATOVNING " JAMILA " ASARI

Aziza Alisherova Shuhrat qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 3-bosqich talabasi

Go‘zal Atabayeva Farxadovna
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, O‘qtuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi haqida ma'lumot, " Jamila" asari tahlili xususida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, asar, ayol obrazi, muhabbat, voqelik, zamonaviy adabiyot

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz. Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz hududida asrlar davomida yaratilgan badiiy adabiyot durdonalari har bir avlod ijodkorlari tomonidan yangilanib, boyitilib, badiiy jihatdan yanada takomillashtirilib kelingan. Hozirgi davrda adiblarimiz ijodini o‘rganish va ular yaratgan o‘lmas asarlar bilan o‘quvchilarni tanishtirish, ularga o‘rgatish adabiyotshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘ziga xos poetik uslubga ega bo‘lgan adib Chingiz Aytmatov ijodi butun dunyo ahlini o‘zining haroratli so‘zi ila hayratga soldi. Yozuvchi ijodining originalligi, xalq og‘zaki ijodining badiiy unsurlaridan unumli foydalanib, insonlarni ezgulikka, bashariyatni esa ogohlikka da‘vat etishi bilan xarakterlanadi.

Chingiz Aytmatov 1928 yil 12 -dekabrda Qirg‘izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug‘ilgan. Uning otasi Torekul Aytmatov (1903—1938) avvaliga faol dehqon, so‘ngra sovet hamda partiya ishchisi, Qirg‘iz SSSR Davlat arbobi bo‘lgan, lekin 1937 yil hibsga olinib, 1938 yil otib tashlangan. Onasi - Nagima Xamziyeva Abduvaliyeva (1904 - 1971), millati - tatar, armiya siyosiy ishchisi, keyinchalik jamoat arbobi bo‘lgan. Chingiz, uning akalari va singillari otasining qistovi bilan uning o‘limidan oldin Shekerga ko‘chib kelishgan

va shu yerda ulg'ayishgan. Sakkiz sinfni bitirib, zootexnikumga o'qishga kiradi va a'lo baholarga bitiradi. 1948 yil Frunzedagi Qirg'iz qishloq-xo'jalik institutiga o'qishga kirib, 1953 yil tamomlaydi. 1952 yil qirg'iz tilidagi hikoyalarini tez-tez bosma nashrda chop eta boshlaydi. Institutni tamomlagach, uch yil davomida veterinar bo'lib ishlash bilan birga, yozuvchilik ham qilib, hikoyalarini nashrdan chiqaradi. 1956 yil Moskva Oliy adabiyot kurslariga o'qishga topshiradi (1958 yil tamomlagan). 1957 yil iyun oyida qirg'iz tilidagi "Yuzma-yuz" hikoyasi "Ala-Too" jurnalida bosib chiqarilgan. "Jamila" qissasi esa bosma nashrdan ilk bor 1957 yil Lui Aragon tarjimasi bilan fransuz tilida chop etilgan. Shu yili uning hikoyalari "Yangi dunyo" jurnalida nashr qilingan, "Jamila" qissasi ham rus tilida chop etilib, Aytmatovga olamshumul mashhurlik olib kelgan. "Jamila"dan so'ng shuningdek, "Bo'tako'z" (1960), "Birinchi muallim" (1961), "Momo yer" (1963) hikoyalari hamda "Tog' va adirlar hikoyasi" to'plami bosma nashrdan chiqqan. "Tog' va adirlar hikoyasi" to'plami uchun yozuvchi Lenin mukofotiga sazovor bo'lgan. Mazkur asarlarning barchasi bir vaqtning o'zida ham rus, ham qirg'iz tillaridan chop etilgan. "Birinchi muallim" hikoyasi "Mosfilm" kinostudiyasida Andrey Konchalovskiy tomonidan ekranlashtirilgan. "Bo'tako'z" hikoyasini esa L. Shepitko ekranlashtirgan bo'lib, Kemal rolini Bolot Shamshiyev ijro etgan. Keyinchalik Chingiz Aytmatov asarlari asosida film suratga olish bo'yicha Shamshiyev eng yaxshi rejissyorlardan biriga aylangan.

O'zbek adabiyotshunosligida aytmatovshunoslik o'z o'rnini va o'z ovozigacha ega. Chingiz Aytmatov ijodi va asarlari tahlili, ularning badiiy qimmatini, yozuvchining qardosh xalqlar bilan adabiy munosabatlari masalasini G'aybullay Salomov, Asil Rashidov, Ilhom G'aniyev va Rustam Ibragimov singari olimlarimiz o'z tadqiqotlarida batafsil yoritib berganlar. Yirik asarlarni dunyo ahliga taqdim etgan yozuvchining o'ziga xos mahorati va milliy epos an'analari bilan uyg'unlashgan asarlari tadqiqi olimi Pariza Mirzaahmedova tomonidan tahlil qilingan. Shuningdek, yozuvchi asarlari tarjimoni olimi Asil Rashidov o'z monografiyasida yozuvchining badiiy asarlari tahlili bilan bir qatorda uning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan alohida mehr-muhabbati haqida ham fikr bildiradi.

Jamila – Ch. Aytmatovgacha antik adabiyot nasrida tanqid qilinmagan ayol obrazi. "Jamila" hayotida Ch. Aytmatov yangicha, nozik va katta ichki nafosat bilan eskiga yangini kiritish, patriarxal va sotsialistik hayotni tartibga keltirish muammosini buzdi. Bu ulug' yozuvchi o'z asarlari bilan dunyoni maftun qildi. Shuni ham aytish kerakki, bu "yurish"da uning "Jamila" qissasi yalovbardor bo'ldi. Bu qissa adibi Moskvadagi Oliy adabiyot kursida o'qib yurgan paytlarida yozilgan edi. Institut proza bo'limi rahbari Izbax Gonshteyn buyuk fransuz yozuvchisi Lui Aragonga "Jamila" qissasini yuboradi. (Qissani Lui Aragonga Muxtor Avezov yuborgan degan fikrlar ham mavjud). Ma'lum vaqt o'tgach Lui Aragon javob xati yozadi. Maktubda aytilishicha, qissa unga juda yoqqan va uni fransuz tiliga tarjima qilib 100 ming nusxada chop ettirgan, yana 100 ming nusxada chop ettirmoqchiligini yozadi. Xat "Men bunday go'zal sevgi qissasini o'qimaganman" degan jumlar bilan yakunlanadi. Balkim mana

shu xat Chingiz Aytmatovga ilhom bag'ishlagandir.

Dunyo adabiyotidan yaxshi xabardor, "Jamila" qissasi syujetidagi qissalardan bir nechtasini o'qigan, nafis did sohibi deya ta'riflanadigan, hayotda ham vafodorligi bilan nom qozongan Lui Aragondek insonni hayratga solgan, "Jamilani" muhabbat haqidagi eng yaxshi qissa deya ta'riflashga undagan narsa nima. Tabiiyki g'arb adabiyoti sharqqa nisbatan muhabbat bobida ancha demokratlashgan, demak Aragonni, va boshqa g'arb o'quvchilarini "Jamila"ning boshqa tomoni sehlaganligi aniq.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, "Chingiz Aytmatov voqelikni badiiy obrazlarda yorqin aks ettirib, his-tuyg'ularimiz va kechinmalarimizga teran ta'sir o'tkazib, o'z asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo'shgan adibdir. U o'zining butun hayoti va ijodi bilan xalqlar do'stligi va hamjihatligi, madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi hamda ma'naviy qadriyatlarning rivojlanishi uchun kurashib keldi. Chingiz Aytmatov o'zbek xalqiga hamisha do'st-u qadrdon edi va shunday bo'lib qoladi. U o'z vatanida sadoqat hamda fidoyilik bilan xizmat qilish timsoli sifatida xotiramizda mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayev O. Yozuvchining ilmiy fantaziyasi // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2005- yil, iyun.
2. Meliyev S. "Asrga tatigulik kun": roman badiiy strukturasi ayrim xossalari // „O‘zbek tili va adabiyoti“, 2010- yil, 2-son.
3. Qorayev Suyun. Insonparvar adib // "Ma'rifat" gazetasi, 2010- yil, dekabr.
4. Pariza Mirzaahmedova. Davrimiz allomasi // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2004-yil, mart.
5. Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. - Toshkent: O'qituvchi, 2011.
6. Seydanov X. Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti. - Toshkent: O'zbekiston
7. Sizdiqboyev N. Chingiz Aytmatov badiiyatining ayrim qirralari // Til va adabiyot ta'limi, 2008- yil 12-son.
8. Solijonov Y., Abdukarimov T. Chingiz Aytmatov - inson va tabiat kuychisi.